

## QOFIYA TALABLARINING TARJIMADA AKS ETISHI

Sapayeva Feruza

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI

O'zbek adabiyoti kafedrasи prof.v.b., filol.f.d.(PhD)

Ózbekiston, Nukus

**Annotatsiya:** Maqolada she'riy tarjimada qofiyani aks ettirish muammosi atoqli turkman shoiri Maxtumquli she'rlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari misolida tadqiq etildi. Bu borada tarjima amaliyotida to'plangan tajribalar umumlashtirilib, qo'llangan turli usullar tasnif qilindi. Tayanch so'zlar: asliyat, tarjima, tarjimon, an'ana, leksik umumiylilik, qofiya, usul, tasnif, qo'shimcha, so'z, ibora, izoh.

**Аннотация:** В статье на примере анализа переводов на узбекский язык стихотворений известного туркменского поэта Махтумкули освещается проблеме передачи рифмы в поэтическом переводе. Обобщаются накопленные в данной сфере опыты и классифицируются различные приёмы, использованные в них.

**Ключевые слова:** оригинал, перевод, переводчик, традиция, лексическая общность, рифма, стиль, классификация, аффикс, слово, фразеологизм, пояснение.

She'r bir bino bo'lsa, uning ustuni – vazn, devori – qofiya, tomi – radif hisoblanadi. "She'riy misralardagi ayrim so'zlarning, ba'zan qo'shimchalar, hijolar yoki so'z birikmalarining bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishiga asoslangan, faqat she'riyat uchungina xos bo'lgan muhim belgilardan biri" qofiya hisoblanadi. "Qofiya she'rning tovush tuzilishida, ritmik tarkibida, intonatsiyasida, sintaktik-semantik bog'lanishida, band tuzilishida muhim vazifani bajaradi, shuning uchun qofiya she'riy nutqni ohangdor va ta'sirli qilishga xizmat etadi, misralarning esda saqlanib qolishini osonlashtiradi" (1.276).

Sharq mumtoz shoirlari qofiyani she'rning ohangdorligi va jarangdorligini ta'minlovchi shakliy vositagina deb hisoblamay, balki unga she'rdagi ma'nazmumni ta'sirchan tarzda yuzaga chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraganlar. Chunki "qofiya she'rda muhim o'rin tutadi: u ohangdorlikni ta'minlabgina qolmay, mazmun bilan ham aloqador" (2.47). Shuning uchun ham she'rda aks etgan g'oya va fikrni yorqin ifodalab, unga alohida joziba bag'ishlaydigan so'z va iboralarni qofiyaga chiqarishga harakat qilganlar. Bunday ohorli va betakror qofiyalar o'quvchi e'tiborini o'ziga tortibgina qolmay, she'rning esda saqlanishini ham osonlashtirgan. Poetik fikrning go'zal va ta'sirchan chiqishiga xizmat qilishi jihatidan qofiya she'riy asarning asosiy unsurlaridan biri sanaladi.

Ba’zi xalqlar she’riyatida qofiya umuman yo‘qligi, keyingi yillarda zamonaviy she’riyatda qofiyasiz she’r yozish urfga kirganiga qaramay, qofiya hamon nazmiy asarning asosiy unsuri bo‘lib kelmoqda. Qofiya she’r ruhida tarbiya topgan o‘quvchining qofiyasiz she’rni qabul qilishi qiyin. Shuning uchun ham taniqli avar shoiri Rasul Hamzatovning qofiyasiz she’rlari (chunki avar she’riyatida qofiya yo‘q) rus o‘quvchilarining talab va ehtiyojlarini hisobga olib, rus tiliga qofiyali qilib o‘girilgan (3.79). Rus tili orqali boshqa ittifoqdosh ruspriblikalar, jumladan, o‘zbek tiliga ham qofiyali tarzda tarjima qilingan.

She’riy tarjimada tarjimonni eng ko‘p qiynaydigan va qattiq izlanishga majbur qiladigan vositalardan biri aynan qofiya ekanligi sir emas. Chunki barcha tillar ham qofiyadosh so‘zlarga boy emas, ba’zi xalqlar she’riyatida esa mutlaqo qofiya yo‘q. Buning ustiga, ba’zida qofiya uchun tanlangan so‘z ko‘pma’noli bo‘ladi, ba’zida tarjima tilida unga muqobil topilmaydi. Yaqin tillardan tarjimada ham qofiyani aks ettirish muammosi kun tartibidan tushmaydi. O‘zaro leksik umumiyligi ko‘p bo‘lgani bilan yaqin tillardan tarjimada ham qofiya hamisha aynan ko‘chavermaydi: qofiya bo‘lib kelgan ba’zi so‘z va iboralar tarjima o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘ladi, ba’zilari asliyatda ko‘pma’noli bo‘lib, tarjimada birgina ma’noni ifodalashi mumkin va hokazo.

Sharq she’riyatidan tarjimada qofiyani aks ettirishning quyidagi usullarini ko‘rish mumkin:

1. Qofiya aynan saqlab qolinadi – bunda qofiya bo‘lib kelgan qo‘sishimcha, so‘z va iboralar tarjima tili lug‘atida ham mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi.
2. Qofiya tarjima qilib olinadi – bunda qofiyani tashkil etgan grammatik va leksik unsurlar tarjima o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘ladi.
3. Qofiyaning bir qismi aynan qoldirilib, bir qismi tarjima qilinib olinadi – bunda qofiya bo‘lib kelgan iboraning bir qismi tarjima o‘quvchisiga tushunarli, bir qismi tushunarsiz bo‘ladi.
4. Qofiya bo‘lib kelgan so‘z va iboralar tarjima o‘quvchisiga tushunarsiz ekanligidan qat’i nazar aynan saqlab olinadi.
5. She’r mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqa so‘z qofiyaga chiqariladi – bu holni asliyatdagি qofiyaning tarjima tili uchun qoyilmaqom emasligi yoki tarjima o‘quvchisiga tushunarsizligi bilan izohlash mumkin. Bunda tarjimon o‘zi xohlagan boshqa bir so‘zni qofiya sifatida tanlaydi, lekin bu she’rning umummazmuniiga zid kelmay, bil’aks unda aks etgan mazmunni yorqin va ta’sirchan ifodalashga xizmat qilishi kerak.

6. Qofiyasiz she'rni qofiyali qilib o'girish – oz bo'lsa-da, she'riy tarjima amaliyotida ushbu holat ham uchrab turadi.

Atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli she'rlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalarida ham ushbu usullarning deyarli barchasini ko'rish mumkin. Albatta, o'zbek va turkman tillarining bir oilaga mansubligi jihatidan ularda leksik umumiylilikning ko'pligi va bu ikki qardosh xalq adabiyotining mushtarak an'analar asosida rivojlanganidan tarjimonlar qofiyani aks ettirish borasida ortiqcha qiyinchilikka duch kelmay ko'pincha uni aynan saqlab qo'ya qoladilar. Zero, qofiyani aynan saqlash imkoniyati mavjud ekan, uni zo'rma-zo'raki almashtirishga hojat yo'q. Bu, hatto, asliyat ruhi va shaklining o'zgarishiga sabab bo'lib, tarjimaning zarariga xizmat qilishi mumkin.

Qofiyani almashtirish – birato'la bandning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishni taqozo qiladi. Tarjimonlarning esa bunday ortiqcha zahmatni zimmalariga olgilari kelmaydi. Holbuki, izlanish mashaqqatidan qochmasa, tarjima bahonasida muayyan she'rning ham, alohida bandlarning ham qurilishini o'zgartirish – buzib qayta tuzish orqali o'zbek tili qonun-qoidalariga qoyilmaqom tarjima yaratish mumkin. Maxtumqulining "Yeldim de" she'rining ikkinchi bandida "dilege", "pelege" va "kolege" so'zleri o'zaro qofiya hosil qilgan. O'zbek tilida kopchilik tarjimonlar izlanish mashaqqatidan qochib, ular to'liq qofiya hosil qilmay qolgan:

*Asliyatda: Ач хем болсан, барма иле дилеге,  
Дий: "Көшикде, башим бармыш пелеге",  
Чөлдө галсан хич тапмаян көлеге,  
Эрем багы ичре сая булдум тум! (5,1,184)*

#### *J.Sharipov tarjiması:*

Och ham bo'lsang, borma elga tilarga,  
Ayt: ko'shdaman, boshim yetmish falakka,  
Cho'lda qolsang ham topmasdan ko'lanka,  
Eram bog'i ichra g'amsiz qoldim de (TA, 205).

Bu yerda "tilarga", "falakka" va "ko'lanka" so'zlarining birortasi o'zaro qofiya emasligi ko'rinish turibdi. J.Jabborov tarjimasida esa "tilakka" va "falakka" so'zleri o'zaro qofiya bo'lib, "ko'lanka" so'zi ular bilan hamohanglik hosil qilmagan:

Keltirilgan band tarjimasiga ijodiy yondashish natijasida E.Ochilov sof o'zbekcha jarangdor tarjima yaratishning uddasidan chiqqan:

*Tarjimada: Och bo'lsang ham borma elga tilanib,  
"Ko'shdaman, – de, – boshim ko'kka ulanib".*

Bir soya topmasang sahroda yonib,  
Eram bog‘i ichra soya topdim de (4, 101).

E.Ochilov ko‘plab bandlar, ba’zida hatto butun boshli she’rlar tarjimasida ana shunday ijodiy tajribalar qilishdan cho‘chimagan. Buning natijasida esa o‘zbek tiliga mos, o‘quvchiga tushunarli, ravon va jarangdor tarjimalar dunyoga kelgan. Jumladan, “Mohim mening” murabbasini “Mohitobonim mening” nomi bilan ham qofiyasini o‘zgartirib, ham aruzga solib tarjima qiladi:

*Asliyatda: Я Рен, лутп әйлемесми ол шахынишахым мениң,*  
*Барчалар аиык болан, ол йүзи маҳым мениң,*  
*“Тансам ол зыба жәсемалын” дийп, әрер көйүм мениң,*  
*Ишигиңде гелип өлсем йок турар хунум мениң (5, 1, 271).*

**Tarjimada:** Ey Xudo, rahm aylamasmi sohibi jonim mening,  
Elni oshiq aylagan ul mohitobonim mening,  
Bir ko‘rish orzusida o‘tgusi har onim mening,  
Eshigida chiqsa jonim, yo‘qdir armonim mening (4, 795).

Maxtumquli she’rlari asosan o‘z qofiyasi bilan tarjima qilingan. Qofiya bo‘lib kelgan so‘zlar o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan holatlarda bu o‘zini oqlagan. Lekin sof turkmancha yoki arabcha va forscha so‘zlar qofiyaga chiqarilgan o‘rinlarda bu usul mavhumlik, tushunarsizlik, g‘alizlik, ba’zida hatto ma’no buzilishlariga olib kelgan. Masalan, “Ikki hilolin” she’rini M.Azim tushunmay tarjima qilgan. Natijada forsiy va qadim turkiy qofiyalarini aynan qoldirgan:

*Asliyatda: Магтымгулы, шеб-у руз,*  
*Жан гудаз-у йурек суз,*  
*Бул себәпден берф-у буз,*  
*Багра басар суз алан (5, 1, 25).*

**Tarjimada:** Maxtumquli, shabu ro‘z,  
Jon gudoz-u, yurak so‘z,  
Bul sababdan barf-u bo‘z,  
Bag‘irga bosar so‘zolon (6, 29).

Bu yerda “shabu ro‘z” – “kecha-kunduz”, “Jon gudozu yurak so‘z” – “yurak kuyib, jon o‘rtanadi”, “barfu buz” – “qor va muz” ma’nolarini bildiradiki, o‘quvchi tarjima qilinmay, aynan ko‘chirilgan so‘zlar tizmasidan bir narsani tushunishi, biror ma’no chiqarib olishi qiyin. E.Ochilov mazkur bandni o‘zbek tilida mana bunday ifodalagan:

**Tarjimada:** Maxtumquli, tunu kun,  
Jonu dil yondi butun,

Qor bilan muz shu uchun  
Erir bag'rimda, biling (4, 519).

Yuqoridagi band tarjimasida tarjimon qofiya bo'lib kelgan so'zlarni tarjimasiz aynan qoldirgan bo'lsa, she'rning yarim forscha to'rtinchi bandini esa tarjima qilib o'tirmay, deyarli shundoqqina o'zbek tiliga o'tkazib qo'ya qolgan:

*Asliyatda:Рөвендे-ю аенде,*  
*Зыбан сени гуенде,*  
*Мыдам олуп жуенде,*  
*Тил сениң чүн наланан (5, 1, 25).*

*Tarjimada:* Ravayandayu oyanda,  
Zabon seni go'yanda,  
Mudom o'lib jo'yanda,  
Til sening-chun nolonon (6, 28).

Bunday "chala tarjima"lar deyarli barcha tarjimonlar ijodida ko'plab uchraydi. Masalan, "Mubtalo qildi" she'rining quyidagi bandi forsiy so'zlar asosida qofiyalangan bo'lib, barcha tarjimonlar uning qofiyalanish tartibini aynan saqlab qolganlar. Holbuki, o'zbek mumtoz adabiyoti matnlarida uchrasa-da, bu so'zlar arxaik qatlamni tashkil etib, hozirgi o'quvchi uchun tushunarsiz hisoblanadi. Binobarin, tarjimonlarning bu so'zlarni tarjima qilmay o'zicha tarjima tiliga olib o'tishlari to'g'ri bo'lmasligi:

*Asliyatda:Гамындан өртенип сузан,*  
*Чекер мен нала-ю эфган,*  
*Пыракында гөзүм гириян,*  
*Немей, нейлей, геда кылды (5,1,57).*

#### *E.Ochilov tarjimasi:*

G'amidan o'rtanib so'zon,  
Chekarman nolayu afg'on,  
Firog'ida ko'zim giryon,  
Ko'zim yoshin ravon qildi (4, 63).

J.Sharipov, N.Muhammad, M.Azim tarjimalarida ham qofiyalar aynan saqlangan. Astoydil izlasa, asliyat tilidagi har qanday so'zning ham tarjima tilidagi muqobilini topish mumkin. Hamma gap izlanish, zahmat chekishdan erinmaslikda. Mashhur fransuz adibi va mutafakkiri Bualo ta'biri bilan aytganda:

Qofiya sabot-la izlansa agar,  
"Labbay" deb xizmatga bosh egib kelar (7.6.).

Tarjimonlar esa yangi va tarjima tiliga mos qofiya izlab topish o'rniga asliyat tilidagi qofiya bo'lib kelgan so'zlarni aynan qoldirishni ma'qul ko'radilar.

Holbuki, tarjimonlikning butun mashaqqati ham, tarjimonning mahorati ham asliyat ma'nosini yarq etib ochadigan munosib so'zni topib qo'llashida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tarjimashunoslar yakdillik bilan tarjimonning bor ijodkorligi til sohasida namoyon bo'lishini e'tirof etadilar. Maxtumquli tarjimonlari orasida esa so'zga mas'uliyat bilan yondashish, har bir so'z ustida zargarday ter to'kish hodisasini kam uchratamiz. Masalan, "Nori bo'lmasa" she'rining uchinchi bandi tarjimasida M.Ahmad turkmancha (aslida qadim turkiy) "do'nar" (bo'lar, aylanar, evrilar) so'zini hozirgi o'quvchiga tushunarsiz ekanligiga qaramay, aynan qoldiradi:

**Asliyatda:** Шербет ичсан, бала дөнер,

Хер бир гуни йыла дөнер,

Гул дек реңи күле дөнер,

Гөзелиң яры болмаса (5. 1, 220).

**Tarjimada:** Asallari bolga do'nar,

Har bir kuni yilga do'nar,

Guldek rangi kulga do'nar,

Go'zalning yori bo'lmasa (8.46).

Holbuki, E.Ochilov bu o'rinda "do'nar" so'zini "bo'ladi" deb olib, sof o'zbekcha tarjima chiqaradi:

**Tarjimada:** Sharbat ichsang bol bo'ladi,

Har bir kuni yil bo'ladi,

Guldek rangi kul bo'ladi,

Go'zalning yori bo'lmasa (4, 121).

"Do'nmoq" so'zining o'zbekcha ma'nolarini izlab o'tirmay, uni aynan qoldirish Maxtumqulining deyarli barcha tarjimonlari ijodida ko'plab uchraydi. Holbuki, bu so'z allaqachon o'zbek tilining arxaik qatlamiga aylangan. Binobarin, tarjimada bu so'zni aynan qoldirish hozirgi zamon o'quvchisining tushunish darajasini hisobga olmaslikdir. Tarjimonlarimizning esa davrning bu talabi bilan sira hisoblashgilar kelmaydi. Chunki yangi avlod tarjimonlar ham bu so'zning muqobilini qidirib topish o'miga uning o'zini saqlab qolish bilan muammoni oson hal qilish yo'lidan bormoqdalar.

Maxtumquli she'rlari tarjimasini qofiyaning aks etishi jihatidan tekshirish tarjimonlar bu borada asosan qofiyani har qanday holatda ham aynan saqlash yo'lidan borganlarini ko'rsatadi. Ba'zi hollardagina o'zbek o'quvchisiga tushunarsizligidan kelib chiqib, qofiyalar yo tarjima qilib olingan, yo yangisi bilan almashtirilgan. Qofiya o'zgarsa, bandni qayta shakllantirishga to'g'ri kelishi jihatidan ko'pchilik tarjimonlarning ortiqcha mashaqqat va izlanishlarga

bo‘yinlari yor bermay, tushunarsiz bo‘lsa-da, qofiyani o‘zicha qoldirib, matn ostida izoh berishni afzal ko‘radilar. Holbuki, tushunarsiz so‘zlar qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa, ularni tushunarilari bilan almashtirish zarur va bundan cho‘chimaslik kerak. Buning uchun asliyat ta’siridan chiqib, unga ijodiy yondashish taqozo qilinadi.

**Adabiyotlar:**

1. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983. – Б. 276.
2. Очилов Э. Шеърий таржима мураккабликлари \| Таржима масалалари (Илмий мақолалар тўплами). 2-қисм. – Т.: Шарқшунослик институти, 2014. – Б. 47.
3. Владимирова Н. Иллат қаердан бошланади? \| Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985. – Б. 79.
4. Махтумқули. Булбул ноласи (Э.Очилов тарж.). – Т.: ҲИЛОЛ-НАШР, 2014. – 101 б.
5. Magtymguly. Eserler ýugyngysy. I jilt. Aşgabat: Ylym, 2013. – 271 s.
6. Махтумқули. Боди сабони кўрсам (М.Азим тарж.). – Бухоро, 2013.
7. Буало. Шеърий санъат (Ж.Камол тарж.). – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 6.
8. Махтумқули. Сайланма (М.Ахмад тарж.). – Т.: Ўзбекистон – Ёзувчи, 1995. – 96 б.